

## 76. Sonning qismini topish





**Yondosh mavzu:**  
taom tayyorlash.

Bo'lish, ulush, qism.



1. Har bir shaklning qanday qismi bo'yalgan? Qaysi holatda bitta ulush bo'yalgan?



2. Tuxumlarning qanday qismi ishlatilganligini aniqlang.




3. Bir qop unning massasi 60 kg.
- Qop 3, 6, 10, 15 qismlarga bo'lingan. Ushbu holatlarning har birida bir qism qanday ataladi?
  - Ushbu holatlarning har birida bitta qismning massasi qanday?
  - Uning  $\frac{1}{20}$  qismi necha kilogramm?
  - Uning  $\frac{1}{n}$  qismi necha kilogramm?



Sonning  $\frac{1}{n}$  ulushini topish uchun uni  $n$  ga bo'lish kerak.



4. Bir xalta shakarining massasi 1 kg 200 g. U teng uch qismga bo'ldi. Har bir qism qanday ulushni tashkil etadi? Har bir qism necha gramm?




5. Masalalarga doir sxemalar tuzing va ularni yeching.

a) Xaltada 48 ta konfet bor. Ularning  $\frac{1}{3}$  qismi vazaga solindi. Vazada nechta konfet bor?

b) Tort tayyorlash uchun bir kilogramm olcha sotib olindi. Akmal bir kilogrammda 128 ta olcha borligini sanadi. Pirogni bezatish uchun olchani  $\frac{1}{4}$  qismi ajratildi. Nechta olcha ajratib qo'yilgan?



6. Bir qadoq sariyog'ning massasi 250 g. Qadoq besh qismga bo'lingan. Krem tayyorlash uchun uchta shunday qism ishlatildi. Krem uchun qancha sariyog' ishlatilgan?



Sonning  $\frac{m}{n}$  qismini topish uchun sonni  $n$  maxrajga bo'lib, keyin uni  $m$  suratga ko'paytirish kerak.



7. Masalalarga doir sxemalar tuzing va ularni yeching.

a) Oshpaz 432 ta quymoq pishirdi. U quymoqlarning  $\frac{5}{8}$  qismini go'sht bilan, qolganini esa murabbo bilan tayyorladi. U nechta go'shtli va nechta murabboli quymoq tayyorlagan?

b) Qandolatchi 210 ta tort tayyorladi. Ularning  $\frac{3}{7}$  qismi shokoladli, qolganlari esa mevali. U nechta shokoladli va nechta mevali tort tayyorlagan?

## 76. Sonning qismini topish

8. Hisoblang.

$(49\,000 : 140 + 187 \cdot 203 + 38\,248)$  ning  $\frac{1}{7}$  qismini;

$(96\,048 : 8 - 10\,422 : 579) : 3$  ning  $\frac{2}{9}$  qismini.

9. Ifodalarni soddalashtiring. Har bir qatordagi misolda qanday umumiylik bor?

$$x + 367 + 633$$

$$568 - (x + 161)$$

$$(482 + x) - 253$$

$$60 \cdot x \cdot 14$$

$$275 + y + 725$$

$$697 - (194 + y)$$

$$(741 + y) - 328$$

$$y \cdot 30 \cdot 18$$

$$z + 198 + 802$$

$$543 - (z + 532)$$

$$(z + 621) - 195$$

$$21 \cdot z \cdot 90$$

10. Boshqotirmanani yeching.

$$\text{🍅} + \text{🍅} = 84\,260$$

$$\text{🍅} - \text{🍲} = 6\,870$$

$$\text{🍲} : \text{🍲} = 20$$

$$\text{🍲} + \text{🍅} = ?$$

$$\text{🍷} \cdot \text{🍷} = 1\,600$$

$$\text{🍷} + \text{🍷} = 690$$

$$\text{🍷} : \text{🍷} = 50$$

$$\text{🍷} - \text{🍷} = ?$$

11. Bozordan 12 kg kartoshka sotib olindi. Barcha kartoshkaning  $\frac{1}{6}$  qismidan pyure tayyorlandi,  $\frac{2}{3}$  qismi esa kartoshka-fri uchun ajratib qo'yildi. Qancha kartoshka qoldi?

12. Hisoblang.

$7\,004 - ((653 + 226) \cdot 2 + 44)$  ning  $\frac{1}{6}$  qismini;

$(1\,424 : 8 + 6\,878) : 16$  ning  $\frac{1}{21}$  qismini;

$543\,600 : 90 - 18 \cdot (13 + 242)$  ning  $\frac{3}{5}$  qismini.